O‘QITUVCHILARINING INKLYUZIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK HAMKORLIK MODELI

Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ilmiy-tadqiqot” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik hamkorlik modeli va uning nazariy-amaliy asoslari tadqiq etilgan. Muallif inklyuziv madaniyatning mohiyati, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik zaruriyati hamda uning tashkiliy-institutsional, pedagogik-amaliy, axloqiy-qadriyatli va axborot-kommunikativ strategiyalarini yoritib beradi. Maqolada inklyuziv muhitda ishlovchi o‘qituvchi shaxsining kasbiy profili, unga qo‘yiladigan talablar, pedagogik faoliyatning dominant funksiyalari hamda oliy pedagogik ta’lim jarayonida inklyuziv madaniyatni shakllantirish bosqichlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv madaniyat, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik, inklyuziv ta’lim, o‘qituvchi profili, hamkorlik strategiyalari, gumanistik qadriyatlar, pedagogik tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье исследуется модель социально-педагогического сотрудничества в развитии инклюзивной культуры у учителей общеобразовательных учреждений и ее теоретико-практические основы. Автор освещает сущность инклюзивной культуры, необходимость социально-педагогического сотрудничества и его организационно-институциональные, педагогико-практические, нравственно-ценностные и информационно-коммуникативные стратегии. В статье подробно анализируются профессиональный профиль учителя, работающего в инклюзивной среде, предъявляемые к нему требования, доминирующие функции педагогической деятельности, а также этапы формирования инклюзивной культуры в процессе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: инклюзивная культура, социально-педагогическое сотрудничество, инклюзивное образование, профиль учителя, стратегии сотрудничества, гуманистические ценности, педагогическая подготовка.

Abstract: This article examines the model of socio-pedagogical

cooperation for developing inclusive culture among secondary school teachers and its theoretical and practical foundations. The author highlights the essence of inclusive culture, the necessity of socio-pedagogical cooperation, and its organizational-institutional, pedagogical-practical, moral-value, and information-communicative strategies. The article provides a comprehensive analysis of the professional profile of a teacher working in an inclusive environment, the requirements imposed upon them, the dominant functions of pedagogical activity, and the stages of forming an inclusive culture in the process of higher pedagogical education.

Keywords: inclusive culture, socio-pedagogical cooperation, inclusive education, teacher profile, cooperation strategies, humanistic values, pedagogical training.

Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish – har bir bolaga, jumladan nogironligi bo‘lgan, ehtiyojlari turlicha bo‘lgan o‘quvchilarga teng imkoniyat yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikka asoslangan faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv madaniyatning mohiyati. Inklyuziv madaniyat – bu faqat ta’lim jarayonini qamrab olmaydi, balki:

- har bir shaxsning qadrini e’tirof etish,
- farqlarni boylik sifatida qabul qilish,
- hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyati uning qadriyatlari, qayta fikrlay olish qobiliyati, hamdardlik, barcha bolalar bilan teng munosabatda bo‘lish malakasi orqali namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning zarurati. Inklyuziv ta’lim samaradorligi – faqat o‘qituvchi emas, balki butun jamoa: ota-onalar, psixologlar, logopedlar, mahalliy jamoat tashkilotlari, davlat va nodavlat muassasalarning hamkorligi orqali ta’minlanadi. Ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning asosiy vazifalari: bola ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ta’lim muhitini yaratish; o‘qituvchini metodik va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash; jamoatchilikda inklyuziv madaniyatni targ‘ib qilish; ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish.

Hamkorlik strategiyalari:

Tashkiliy-institutsional strategiya: Ta’lim muassasasida “inklyuziv guruh” yoki “inklyuziv markaz” tashkil etish; har bir bola uchun individual rivojlanish dasturi ishlab chiqish; hamkor tashkilotlar (mahalla, sog‘liqni saqlash muassasalari) bilan memorandumlar tuzish.

Pedagogik-amaliy strategiya: Inklyuziv ta’lim bo‘yicha treninglar,

seminarlar va vorkshoplar o‘tkazish; o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashinuvi (peer-learning) tizimini yo‘lga qo‘yish; inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Axloqiy-qadriyatli strategiya: barcha o‘quvchilarga nisbatan teng munosabat, bag‘rikenglik va hamdardlikni shakllantirish; ta’lim muassasasida “inklyuziv muhit kodeksi”ni ishlab chiqish va amalga joriy etish; inson huquqlari va bolalar huquqlariga oid targ‘ibot-tashviqot ishlari.

Axborot-kommunikativ strategiya: ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda inklyuziv ta’lim yutuqlarini yoritish; ota-onalar uchun axborot bukletlari va qo‘llanmalar tayyorlash; multimedia vositalari yordamida ma’naviy-axloqiy ma’ruzalar tashkil qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik asosida nimaga erishamiz: birinchidan, o‘qituvchilarda inklyuziv madaniyat, hamdardlik va ijtimoiy mas’uliyat kuchayadi; inklyuziv muhitda ishlash malakasi rivojlanadi; jamoatchilikda inklyuziv qadriyatlarga hurmat oshadi; nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’limga integratsiya darajasi yuksaladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, o‘qituvchilarning inklyuziv madaniyatini rivojlantirish – jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishining muhim omillaridan biri. Bu jarayon samarali ijtimoiy-pedagogik hamkorlik strategiyalarini amalga oshirish orqali muvaffaqiyatga erishadi.

Ushbu jarayonning modelini yaratish umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini inklyuziv muhitda ishlashga kasbiy tayyorlash konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida kelajakdagi inklyuziv ta’lim o‘qituvchisining portretini ishlab chiqishga undadi.

O‘qituvchining portreti – bu ma’lum bir kasb bilan bog‘liq ish sharoitlari va xususiyatlarining keng ro‘yxatini, uning individual talablari, shuningdek, xodim ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kasbiy muhim fazilatlarni o‘z ichiga olgan maxsus xaritadir.

Kasbiy profil kasbga qo‘yiladigan bir qator talablarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar ro‘yxati, kasbiy mahoratni belgilaydigan elementlar va kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan shaxsning shaxsiy fazilatlariga oid talablar ham mavjud.

Biz inklyuziv muhitda ishlash imkoniyatini belgilaydigan va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchisi (inklyuziv pedagog) malaka profili uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan asosiy malaka va ko‘nikmalarni aniqlashga harakat qilamiz. Biz quyidagilarni inklyuziv umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchi nazariy modelining asosiy tarkibiy qism-

lari deb hisoblaymiz:

- zarur bilim, ko‘nikma va malakalar;
- mutaxassis shaxsining umumiy va maxsus sifatlari;
- kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradigan va kasbiy nuqtayi nazaridan belgilanadigan fazilatlar.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining inklyuziv madaniyatini rivojlantirish modelining asosi bo‘lib, kasbiy tayyorgarlikning kutilayotgan ideal natijasi va ta’lim muassasasiga qo‘yiladigan talablar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu inklyuziv madaniyatni shakllantirishning aniq shakllari, usullari va vositalarini oldindan ko‘rish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchisining inklyuziv muhitida ishlash uchun kasbiy tayyorlash o‘quv dasturini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisining inklyuziv madaniyatiga qo‘yiladigan talablar: muloqot qilish istagi; odamlar bilan osongina aloqa qilish, ularning manfaatini izlash qobiliyati; insoniylik, saxovatlilik, xayrixohlik, sezgirlik; chidamlilik; his-tuyg‘ularni nazorat ostida ushlab turish, ijtimoiy ma’qullangan xatti-harakatlar chegaralarini aniqlash qobiliyati; boshqa odamlarning istaklari, qiziqishlari va intilishlarini tushunish; qarashlar va harakatlardagi farqlarni tenglashtirish, ziddiyatli vaziyatlardan qochish, shaxslararo munosabatlarni tashkil etish qobiliyati; ma’lumotni tinglash va yetkazish, boshqa odamlarning fikrlarini hisobga olish qobiliyati; odamlarni ishontirish qobiliyati; mas’uliyat, aniqlik, intizom; inson psixologiyasini bilish.

Ish sharoitlari. Ish davomida inklyuziv madaniyatga ega umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisi o‘quvchilar jamoasining turli bolalari uchun ma’naviy javobgarlikni oshirish sharoitida ma’lumotlarni tahlil qiladi va qarorlar qabul qiladi.

Dominant faoliyat. O‘qituvchining inklyuziv madaniyati – bu ta’lim jarayonining, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tuzatish va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalarini bajarishga, me’yoriy rivojlangan bolalar va ta’lim ehtiyojlari cheklangan bolalar o‘rtasida uyg‘unlashtirishni amalga oshirishga qaratilgan ko‘p funksional kasbiy faoliyatdir.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyatining asosiy jihatlari:

- pedagogik (kasbiy) – o‘quvchini o‘qitish, shuningdek o‘z ta’lim faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish va har bir o‘quvchining faoliyatini tashkil etish, uni rag‘batlantirish, muvaffaqiyatni nazorat qilish;
- ijtimoiy – ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy maslahat, ijtimoiy xabardorlik;

- tuzatish – ikkilamchi aqliy yoki fiziologik kasalliklarni tuzatish yoki zaiflashtirish, yosh o‘quvchining xulq-atvori, hissiy va kognitiv sohalaridagi buzilishlar;

- kommunikativ – ijtimoiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlashga multidissiplinar yondashuvni ta’minlaydigan umumiy rivojlanish va maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan maktab o‘quvchilari, ularning ota-onalari va maktab mutaxassislari jamoasi o‘rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish;

- konfliktologik – sinfda ijtimoiy-pedagogik ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va hal qilish;

- animatsiya – ta’lim imkoniyatlari cheklangan o‘quvchini shaxs va sinf o‘quvchilari, jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tiklashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga undash;

- o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari, shaxsiy rivojlanish darajasi va dinamikasini aniqlash bilan bog‘liq diagnostika, shundan keyingina faoliyatni loyihalash, umumiy ta’lim muassasasi mutaxassislari jamoasiga maslahat va axborot yordamini ko‘rsatish;

- terapevtik – terapevtik pedagogika yordamida yosh o‘quvchini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

- tashkiliy – turli xil ijtimoiy va ta’lim shakllarini joriy etish (xayriya tadbirlari, festivallar, oyliklar va boshqalar), bolalar va kattalarning turli xil ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishini boshlash.

Inklyuziv madaniyat – bu shaxsning farqlarga nisbatan munosabati, tenglik va bag‘rikenglik tamoyillarini anglab yetish va ularni amaliyotda tatbiq etish qobiliyatidir.

O‘qituvchida inklyuziv madaniyatning shakllanishi – uning professional faoliyatidagi ma’naviy va pedagogik yetuklikning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Biz bilamizki, inklyuziv madaniyatni rivojlantirishning dominant turlari uch turga bo‘lish mumkin.

Hozirgi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanmoqda. Inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalar uchun, balki har bir shaxsning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi gumanistik ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchining inklyuziv madaniyati – uning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilarning inklyuziv madaniyatini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi.

Inklyuziv madaniyat – bu har bir insonning shaxsiy qadri, uning jamiyatdagi o‘rni va imkoniyatlarini tan olishga asoslangan gumanistik qadriyatlar tizimidir. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchining inklyuziv

madaniyati faqat bilim yoki ko‘nikma bilan chegaralanmay, balki uning dunyoqarashi, pedagogik pozitsiyasi, emotsional munosabati va axloqiy qiymatlarini qamrab oladi.

O‘qituvchida inklyuziv madaniyatni shakllantirish – bu uzluksiz, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik jarayon bo‘lib, unda ta’lim, tarbiya va shaxsiy rivojlanish omillari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon tizimli yondashuvni talab qiladi, ya’ni inklyuziv madaniyatning maqsad, mazmun, usul, vosita va natijalarini yagona pedagogik tizimda ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, yaxlit pedagogik jarayonda oliy o‘quv yurtining ijtimoiy-madaniy ta’lim muhiti bilan ta’minlanadi va bizning fikrimizcha, quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

Dastlabki bosqich – bu oliy pedagogik ta’lim muassasasiga qabul qilish bosqichidir. Bu davr talabaning o‘qish istagi bilan tavsiflanadi, biroq, mustaqillik hali shakllanmagan va tashabbuskorlik ko‘p hollarda namoyon bo‘lmaydi. Kasbiy yo‘nalishni shakllantirish darajasi kasb tanlashda noaniqliklar, ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani shakllantirish maqsadini o‘z ichiga oladi.

Asosiy bosqich – bu bosqichda o‘qituvchi inklyuziv ta’limda ishlashga bo‘lgan qat’iy niyatini shakllantiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonch va mustaqillik hissi paydo bo‘ladi. Pedagogik faoliyat mas’uliyat hissi va kasbga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Bu bosqichda o‘z faoliyati bo‘yicha o‘z ustida ishlashni davom etadi. U kasbiy tayyorgarlikning ham nazariy, ham amaliy jihatlariga alohida

e’tibor qaratadi, shuningdek, inklyuziv muhitda kelajakdagi kasbiy faoliyatini anglay boshlaydi. Shaxsiy va kasbiy fazilatlar yaxshi rivojlangan, bu o‘qituvchining imkoniyatlari va harakatlarini anglashda namoyon bo‘ladi.

Yakuniy bosqich – bu bosqichda talabaning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga bo‘lgan qat’iy ishtiyoqi shakllanadi. U tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha qobiliyatlarga ega bo‘lib, diplom olish uchun bilim va ko‘nikmalarni egallashga qat’iy motivatsiyasi bo‘ladi. Shuningdek, kasbiy ideal shakllanib, tanlangan kasbning ahamiyati to‘g‘risidagi e’tiqodlar mustahkamlanadi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining inklyuziv muhitida ishlash uchun ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasining tuzilishi maktab o‘qituvchisining, shuningdek, ijtimoiy o‘qituvchi, ishchi, yuridik, tibbiy va axborot-kompyuter faoliyatining asosiy fan vakolatlari bilan belgilanadi. Bu mazmun bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar orqali ochiladi. Ko‘rinib turibdiki, inklyuz-

iv ta’lim sohasida malakali mutaxassislarni shakllantirish mutaxassis tayyorlash uchun o‘quv dasturida belgilangan fanlarni o‘zlashtirishga, shuningdek, kasbiy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘quv fanlari siklini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga qaratilgan. Bu inklyuziv ta’lim sharoitida ijtimoiy- pedagogik faoliyatda nazarda tutilgan barcha turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova F.U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish: Ped. fan. nomz. dis. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2006. – 20 b.
2. Shomaxmudova R. Farzandingizga o‘zingiz yordam bera olasiz // Bola va zamon. – 2006. – № 1. – B. 45.
3. Инновационные подходы к обучению и воспитанию детей с нарушением слуха / Под ред. М.И. Никитина. – СПб.: Образование, 1997. – С. 270-273.
4. Назарова Н.М. Закономерности развития интеграции как социального и педагогического феномена // Компенсирующее обучение: опыт, проблемы, перспективы. – М.: Академия, 1996.
5. Алехина С.В. Принципы инклюзии в контексте изменений образовательной практики // Психологическая наука и образование. – 2014. – № 1. – С. 5-16.